



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD., dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

KATTA VA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTABGA TAYYORLIK DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna

NamDPI dotsenti

ORCID ID:<https://orcid.org/0009-0008-2838-1542>

nargizaabdusamatova75@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlash muammosi kompetensiyaviy va integrativ yondashuv asosida tadqiq etilgan. Muallif maktabga tayyorlikni pedagogik, psixologik, metodik, gigienik-jismoniy, ijtimoiy-kommunikativ va raqamli tayyorlik kabi kompleks ko'rsatkichlar tizimi sifatida asoslaydi. Shuningdek, bolada shakllantirilishi lozim bo'lgan intellektual, irodaviy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ va motivatsion sifatlar tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liq holda rivojlanishi zarurligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: Maktabga tayyorlik, katta va tayyorlov guruhi, pedagogik tayyorlik, psixologik tayyorlik, metodik tayyorlik, ijtimoiy-kommunikativ tayyorlik, raqamli tayyorlik, integrativ yondashuv, boshqaruv funksiyalari.

ТРЕБОВАНИЯ К УРОВНЮ ГОТОВНОСТИ ДЕТЕЙ СТАРШЕЙ И ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУПП К ШКОЛЕ

Аннотация. В статье на основе компетентностного и интегративного подходов исследуется проблема подготовки детей старшей и подготовительной групп к школьному обучению. Автор обосновывает готовность к школе как комплексный показатель, включающий педагогическую, психологическую, методическую, гигиенически-физическую, социально-коммуникативную и цифровую готовность. Проанализированы интеллектуальные, волевые, социально-эмоциональные, коммуникативные и мотивационные качества ребёнка, показана их взаимосвязанность в процессе формирования. Проведён сравнительный анализ научных взглядов зарубежных и отечественных исследователей.

Ключевые понятия: готовность к школе, старшая и подготовительная группа, педагогическая готовность, психологическая готовность, методическая готовность, социально-коммуникативная готовность, цифровая готовность, интегративный подход, исполнительные функции.

REQUIREMENTS FOR THE SCHOOL READINESS LEVEL OF SENIOR AND PREPARATORY GROUP CHILDREN

Abstract. This article examines the problem of preparing children in senior and preparatory preschool groups for school education, based on competency-based and integrative approaches. The author

substantiates school readiness as a complex indicator encompassing pedagogical, psychological, methodological, hygienic-physical, social-communicative, and digital readiness. Intellectual, volitional, social-emotional, communicative, and motivational qualities of the child are analyzed, demonstrating their interconnected development. A comparative analysis of the scientific views of foreign and domestic researchers is conducted.

Keywords: school readiness, senior and preparatory group, pedagogical readiness, psychological readiness, methodological readiness, social-communicative readiness, digital readiness, integrative approach, executive functions.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlash muammosi bugungi kunda kompetensiyaviy va integrativ yondashuv asosida tadqiq etilayotgan dolzarb ilmiy-pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda maktabga tayyorlik tushunchasi bolaning faqat bilim darajasi bilan emas, balki uning shaxsiy rivojlanishining turli sohalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan belgilanadigan kompleks holat sifatida talqin etiladi.

Respublikamizdagi yaqin yillar mobaynida ta'lim tizimida kuzatilayotgan istiqbollik o'zgarishlar, bevosita maktabgacha ta'lim tizimi bosqichida ham ijobiy yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa bevosita maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbar va xodimlari, pedagog-tarbiyachilari zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Ushbu muhim jarayonda, ayniqsa, tarbiyachi-pedagoglarda bolalar faoliyati darajasini diagnostika qilishga tayyorlash va ular bilan tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonini diagnostik natijalar asosida samarali tashkil etishga o'rgatish zamonaviy ta'lim talablaridan biriga aylandi. Negaki, bugungi tezkor va shiddatli jamiyatda o'tayotgan har bir daqiqa qadrlil bo'lib turgan pallada, tavakkalchilikdan ko'ra, olingan natijalar asosida ish tutish samarali natijani yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida[1] maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash, umumiy o'rta ta'limga tayyorlash, shuningdek, ularning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga oid vazifalar belgilab berilgan. Ushbu hujjat asosida maktabgacha

ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonidan boshlab, guruhlarni jihozlash, muayyan yoshdagi guruhlarni alohida nazarda tutish, kun tartibini tashkil etish hamda haftalik ta'lim yuklamalarini belgilashga alohida e'tibor qaratilgan.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"[2], "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"[3] va "Ilk qadam"[4] Davlat dasturining ishlab chiqilishi maktabgacha ta'lim-tarbiyani samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Zamonaviy maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar bola tarbiyasi, uning sifatli ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvni talab etadi.

USULLAR.

Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, suhbat, tahlil, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabga tayyorlik muammosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va psixologiya fanlarining markaziy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Biroq 2000-yillardan buyon ushbu tushuncha tubdan kengayib, yangicha mazmun kasb etdi: endi maktabga tayyorlik nafaqat bola tomonidan ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallash, balki uning o'quv jarayoniga, muloqotga, yangi ijtimoiy hayotga va ongli faoliyatga yaxlit tayyorligi sifatida talqin etilmoqda.

Amerikalik tadqiqotchi R.C. Rimm-Kaufman va R.C. Pianta[7] katta miqyosli tadqiqot o'tkazib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 46% 1-sinfga kelgan bolalarning yarmidan ko'pi maktab hayotiga zarur ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarga ega emasligini ta'kidlaganini aniqladilar. Ushbu statistik ma'lumot maktabga tayyorlikni faqat akademik jihatdan emas, balki kompleks ko'rsatkich sifatida baholash zaruratini ko'rsatdi.

J.P. Shonkoff va D.A. Phillips[8] tomonidan tayyorlangan *"Neyronlardan mahallagacha: erta bolalik rivojlanishining ilmiy asoslari"* asarida bola rivojlanishi biologik (neyron jarayonlar) va ijtimoiy muhit omillarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanishi ilmiy asoslangan. Mualliflar erta bolalik davrida miya rivojlanishining intensivligi, atrof-muhit ta'siri va ijtimoiy munosabatlarning sifati bolaning keyingi ta'limdagi muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.


Ushbu tadqiqot maktabga tayyorlik tushunchasini sezgi a'zolari, harakat va ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq neyrobioiologik jarayonlar bilan bog'laydigan yangi paradigmaning asosini qo'ydi.

Integrativ yondashuvning neyropedagogik asoslarini o'rganish bo'yicha A.Diamond[6] ning tadqiqoti boshqaruv funksiyalari (executive functions) va maktab tayyorligi o'rtasidagi munosabatni neyrobiyologik darajada isbotladi. Diamond bolaning 5–7 yoshida frontal bo'lak rivojlanishining senzitiv davrida ekanligini va aynan shu davrda integrativ metodik tizim qo'llanishi miyaning funksional aloqalarini eng maqbul tarzda shakllantirishi mumkinligini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot integrativ metodikaning neyrobiyologik jihatdan ilmiy asoslanganligini isbotlagan birinchi fundamental asarlar qatoriga kiradi.

G.U.Xolboyeva[9] tadqiqotlari tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish muammosini tadqiq etishga qaratilib, "maktabga tayyorgarlik" – belgilangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi hisoblanib, bolaning akademik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan me'yoriy talablar doirasidagi psixik, jismoniy, intellektual, nutq va muloqot ko'nikmalarining shakllanganligi bilan bog'liq kompleks tayyorgarlik holati, shuningdek maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan tayyorgarlikning muayyan darajasi sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotchi sifatida ta'kidlash joizki, ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim jarayonining mohiyatini to'g'ri ochib beradi, chunki bola rivojlanishi bir yo'nalishda emas, balki barcha sohalarining o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi. Ayniqsa, akademik tayyorgarlikni faqat bilim darajasi bilan emas, balki psixologik barqarorlik, kommunikativ rivojlanish va muloqot ko'nikmalari bilan bog'liq holda talqin etilishi ilmiy jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.


Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga qabul qilish yoshi turli mamlakatlarda har-xil ko'rinishga ega. Jumladan, Tadqiqotchi Sh.G.Akramova[5] "Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini" nomli ilmiy maqolasida ko'pgina davlatlarda majburiy maktab yoki maktabgacha ta'lim bosqichi 5 yoshdan boshlanganligi sababli, jahon statistikasida maktabgacha yoshdagi guruhga 3-4 yoshdagilar kiritilishi, bu esa ko'p hollarda milliy va jahon statistikasini taqqoslashda qiyinchilik tug'dirishini ta'kidlaydi. U dunyo davlatlarining 19 foizida majburiy ta'lim 5 yoshdan, 60 foizida 6 yoshdan va faqatgina 19 foizida 7 yoshdan boshlanishini qayd etadi. Lotin Amerikasi va Karib havzasining ba'zi mamlakatlarida esa majburiy ta'lim boshlang'ich ta'lim bosqichidan ham ilgariroq boshlanib, 3 yoshdan amal qilish holatini empirik jihatdan tahlil qiladi (1-rasm).



1-rasm. Majburiy ta'limning boshlanish yoshiga ko'ra mamlakatlarning ulushi

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ko'plab tahlillarni amalga oshirib, biz tomonimizdan katta va tayyorlov guruh bolalarini maktab ta'limiga tayyrolik darajasi sifatida tarbiyalanuvchilarning quyidagi jihatlariga e'tibor muhim deb hisoblanadi (2-rasm):



2-rasm. Katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorlik darajasiga qo'yilgan talablar.

Pedagogik tayyorlik - bolaning boshlang'ich ta'lim dasturini o'zlashtirishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini egallagan holati; o'qish, yozish va matematik savodxonlik bo'yicha dastlabki tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Psixologik tayyorlik - bolaning o'quv faoliyatiga nisbatan ichki motivatsiyasi, irodaviy boshqaruv, boshqaruv funksiyalari va o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatlarining maktab talablari darajasida shakllanganligidir.

Metodik tayyorlik - bolaning o'quv faoliyatini tashkil eta olish, topshiriqni tushunib bajarish, o'z ishini rejalashtirish va natijasini baholay olishga doir dastlabki ko'nikmalari hamda o'qishga bo'lgan ongli munosabatining shakllanganlik darajasidir.


“Ilk qadam” davlat o’quv dasturida rivojlanish markazlari asosida tashkil etiladigan jamoaviy o’yin va mashg’ulotlar bolaning metodik tayyorligini shakllantirish uchun asosiy pedagogik vosita sifatida belgilangan. Xatosini sezish va uni to’g’rilay olish, bolaning o’z faoliyatini nazorat qila olishi kelajakda mustaqil ta’lim olish uchun zarur omil sifatida xizmat qiladi.

Gigiyenik va jismoniy tayyorlik - bolaning maktab yuklamasini ko’tara olishga mos jismonan sog’lomlik holati, yirik, mayda va sensomotorikasining rivojlanganlik darajasi hamda sog’lom turmush tarziga oid ko’nikmalarning shakllanganligidir.

Ijtimoiy-kommunikativ tayyorlik— bolaning tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qila olish, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy me’yorlarga rioya qilish va sinf jamoasiga moslasha olish qobiliyatlarining shakllanganlik darajasi.

Raqamli tayyorlik - bolaning raqamli muhitda xavfsiz va maqsadli harakat qila olishi, elementar raqamli qurilmalar va ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalarining boshlang’ich darajada shakllanganligidir.

Katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta’limiga tayyorlashda tarbiyachi pedagoglardan tarbiyaylanuvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantirishga alohida ahamiyat berishlari talab etiladi(3-rasm):



3-rasm. Katta va tayyorlov guruh bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashda shakllantirilishi shart bo'lgan sifatlar

1. Intellektual sifatlar

Bola tafakkuri, e'tibori, xotirasi va tasavvurining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Maktab ta'limi bilimlarni tizimli o'zlashtirish, ular asosida mantiqiy xulosa chiqarish va muammoni yechishni talab qiladi; shu boisdan intellektual sifatning shakllanganligi bolaning o'quv materialini anglab o'zlashtirishi va akademik faoliyatga muvaffaqiyatli kirishishining bilishga oid asosi hisoblanadi.

2. Irodaviy sifatlar

O'z-o'zini boshqarish, diqqatni jamlash, boshlangan ishni oxiriga yetkazish va harakatlarini ongli tarzda tartibga solish qobiliyatini anglatadi. Maktabda o'quvchidan qat'iy tartib-intizomga rioya qilish va topshiriqni mustaqil bajarish talab etilgani sababli, irodaviy sifatlar bolaning o'quv faoliyatiga psixologik jihatdan bardoshli va mas'uliyatli yondashuvini ta'minlaydi.

3. Ijtimoiy-hissiy sifatlar

Bolaning o'z his-tuyg'ularini anglashi, boshqalarning kayfiyatini tushunishi va hissiy jihatdan barqaror bo'lishini o'z ichiga oladi. Bu sifatlar bolaning yangi ijtimoiy muhitga sinf jamoasi, o'qituvchi bilan munosabatga psixologik jihatdan moslashuvini yengillashtirib, stress va tashvishni kamaytirish orqali ta'lim jarayonining barqaror kechishiga xizmat qiladi.

4. Kommunikativ sifatlar

Fikrni og'zaki va yozma tarzda aniq ifodalash, tinglash va muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini birlashtiradi. Maktab ta'limi muloqotga asoslangan jarayon bo'lgani uchun, kommunikativ sifatlar bolaning o'qituvchi va tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishi, savol-javob va muhokamalarda faol ishtirok etishi uchun zaruriy vositadir.

5. Motivatsion sifatlar

Bilishga bo'lgan ichki qiziqish, o'qishga ijobiy munosabat va yutuqqa erishishga intilishni ifodalaydi. Motivatsion sifatlar bolaning ta'lim faoliyatini majburiyat sifatida emas, balki ongli ehtiyoj sifatida qabul qilishini ta'minlaydi va bu maktab ta'limiga tayyorgarlikning eng barqaror va uzoq muddatli samara beruvchi komponenti hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlar bir-biridan ajratilgan holda shakllanmaydi. Ular doimo o'zaro aloqada bo'ladi. Masalan, o'z kuchiga ishonch bo'lmasa, qiyinchilikda chidamlilik ham bo'lmaydi. Diqqatni jamlash qobiliyati bo'lmasa, faol tinglash ham bo'lmaydi. Ijtimoiy ko'nikmalar zaif bo'lsa, maqsadga erishishda hamkorlik ham bo'lmaydi.

Pedagog bolalarda ushbu sifatlarni yaxlit, integrativ yondashuv asosida rivojlantirishni maqsad qilishi lozim. Bitta faoliyat bir necha sifatni bir vaqtda rivojlantira oladi. Masalan, birgalikda qurilish o'yinini o'ynash — hamkorlik (ijtimoiy sifat), muammoni hal qilish (intellektual sifat), vazifani oxirigacha bajarish (irodaviy sifat) va o'z fikrini ifodalash (kommunikativ sifat) ni bir vaqtda shakllantiradi.

XULOSA

Umuman xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, bolalami 5-7 yoshda maktab ta'limiga tayyorlash, ularda ertaga maktab dasturlarini yaxshi o'zlashtirishlari, shuningdek, ulaming intilishlari, qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat yaratadi. Maktabga tayyorlik talablariga yaxlit tizimli yondashuv nafaqat bolaning birinchi sinfga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi, balki uning keyingi butun ta'lim hayotining sifatli asosini yaratadi. Raqamli tayyorlik yo'nalishini milliy ta'lim standartlariga kiritish, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini maqsadli rivojlantirish va ota-onani tayyorlik jarayoniga faol jalb etish zamonaviy O'zbekiston maktabgacha ta'limining dolzarb amaliy vazifalari sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5179335>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5179335>
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat "Ilk qadam" o'quv dasturi / Takomillashtirilgan ikkinchi nashr.-Toshkent, 2022.
5. Akramova Sh.G. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2015.-B-1-9.
6. Diamond A. Executive functions // Annual Review of Psychology. – 2013. – Vol. 64. – P. 135–168.
7. Rimm-Kaufman S.E., Pianta R.C. An ecological perspective on the transition to kindergarten // Journal of Applied Developmental Psychology. – 2000. – Vol. 21. – № 5. – P. 491–511.
8. Shonkoff J.P., Phillips D.A. From Neurons to Neighborhoods: The Science of Early Childhood Development. – Washington: National Academy Press, 2000. – 588 p.
9. Xolboyeva G.U. Tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish: ped. fanl. bo'yicha fals. doktori (PhD) diss. avtoreferati. 13.00.08. – Toshkent, 2024. – B. 52.